

INTERNATIONAL JOURNAL ALISHER NAVOIY



VOLUME 6
ISSUE 1 2026

ALISHER NAVOIY XALQARO JURNALI

6-JILD, 1-SON

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ АЛИШЕР НАВОИЙ
ТОМ-6, НОМЕР-1

INTERNATIONAL JOURNAL ALISHER NAVOIY
VOLUME-6, ISSUE-1



TOSHKENT - 2026



ALISHER NAVOIY XALQARO JURNALI

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ АЛИШЕР НАВОИЙ | INTERNATIONAL JOURNAL ALISHER NAVOIY

№1 (2026) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-1419-2026-1>

BOSH MUHARRIR: | ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР: | CHIEF EDITOR:

MIRZAYEV IBODULLA
f.f.d., professor (O'zbekiston)
МИРЗАЕВ ИБОДУЛЛА
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
MIRZAYEV IBODULLA
DSc, professor (Uzbekistan)

**BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI: | ЗАМЕСТИТЕЛЬ
ГЛАВНОГО РЕДАКТОРА: | DEPUTY CHIEF EDITOR:**

JABBOROV NURBOY
f.f.d., professor (O'zbekiston)
ЖАББОРОВ НУРБОЙ
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
JABBOROV NURBOY
DSc, professor (Uzbekistan)

TAHRIRIY HAY'ATI:

Muhiddinov Muslihiddin

f.f.d., professor (O'zbekiston)

Dilorom Salohiy

f.f.d., professor (O'zbekiston)

Sodiqov Qosimjon

f.f.d., professor (O'zbekiston)

Binnatova Almaz Ulvi

f.f.d., professor (Ozarbayjon)

To'xliyev Boqijon

f.f.d., professor (O'zbekiston)

Shodmonov Nafas

f.f.d., professor (O'zbekiston)

Asadov Maqsud

f.f.d., dotsent (O'zbekiston)

Yo'ldoshev Qozoqboy

f.f.d., professor (O'zbekiston)

Jo'raqulov Uzoq

f.f.d., professor (O'zbekiston)

Funda Toprak

f.f.d., professor (Turkiya)

Nabiulina Guzal

f.f.d., professor (Tatariston)

Yusupova Dilnavoz

DSc, professor (O'zbekiston)

Sirojiddin Xo'jaqulov

f.f.d., professor (O'zbekiston)

Rahim Ibrohim

f.f.d., professor (Afg'oniston)

Turobov Abdurahim

f.f.d., professor (O'zbekiston)

Muhitdinova Badia

DSc, professor (O'zbekiston)

Muhammadiyev Ahadjon

DSc, dotsent (O'zbekiston)

Suvonova Jumagul

f.f.n., dotsent (O'zbekiston)

Mirzayev Rahmatilla

y.f.n., dotsent, huquqshunos (O'zbekiston)

Abdullayeva Albina

f.f.n., dotsent (O'zbekiston)

Nurova Gulchehra

f.f.n., dotsent (O'zbekiston)

Sultanov Tulkin

PhD, dotsent (O'zbekiston)

Ubaydullayev Normuhammad

PhD, dotsent (O'zbekiston)

Ruzmanova Roxila

dots., mas'ul kotib (O'zbekiston)

Narziyeva Ma'mura

PhD, kotib (O'zbekiston)

ILMIY MASLAHAT KENGASHI

Xalmuradov Rustam

t.f.d., professor (O'zbekiston)

Sirojiddinov Shuhrat

f.f.d., professor (O'zbekiston)

Eshqobil Shukur

O'zbekiston Respublikasida

xizmat ko'rsatgan madaniyat

xodimi, shoir (O'zbekiston)

Rixsiyeva Gulchehra

f.f.d., professor (O'zbekiston)

Benedek Peri

f.f.d., professor (Vengriya)

Olimov Karomatillo

f.f.d., professor (O'zbekiston)

Dadaboyev Hamidulla

f.f.d., professor (O'zbekiston)

Shomusarov Shorustam

f.f.d., professor (O'zbekiston)

Dyu Rye Andre

f.f.d., professor (Fransiya)

Hamroyev Juma

f.f.d., professor (O'zbekiston)

Aftondil Erkinov

f.f.d., professor (O'zbekiston)

Hasanov Shavkat

f.f.d., professor (O'zbekiston)

Umurova Go'zal

f.f.d., professor (O'zbekiston)

Xalliyeva Gulnoz

f.f.d., professor (O'zbekiston)

Alim Labib

f.f.d., professor (Afg'oniston)

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Мухиддинов Муслихиддин
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Дилором Салохий
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Содиков Косимжон
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Биннатова Алмаз Улви
д.ф.н., профессор (Азербайджан)

Тухлиев Бокижон
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Шодмонов Нафас
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Асадов Максуд
д.ф.н., доцент (Узбекистан)

Юлдашев Казакбай
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Журакулов Узок
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Фунда Топрак
д.ф.н., профессор (Турция)

Набиуллина Гузаль
д.ф.н., профессор (Татаристан)

Юсупова Дилнавоз
DSc, профессор (Узбекистан)

Сирожидин Хужакулов
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Рахим Иброхим
д.ф.н., профессор (Афганистан)

Туробов Абдурахим
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Мухигдинова Бадиа
DSc, профессор (Узбекистан)

Мухаммадиев Ахаджон
DSc, доцент (Узбекистан)

Сувонова Жумагул
к.ф.н., доцент (Узбекистан)

Мирзаев Рахматилла
к.ю.н., доцент (Узбекистан)

Абдуллаева Альбина
к.ф.н., доцент (Узбекистан)

Нурова Гулчехра
к.ф.н., доцент (Узбекистан)

Султанов Тулкин
PhD, доцент (Узбекистан)

Убайдуллаев Нормухаммад
PhD, доцент (Узбекистан)

Рузманова Рохила
доц., отв. секретарь (Узбекистан)

Нарзиева Мамура
PhD, секретарь (Узбекистан)

НАУЧНО-КОНСУЛЬТАТИВНЫЙ СОВЕТ:

Халмурадов Рустам
д.т.н., профессор (Узбекистан)

Сирожидинов Шухрат
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Эшқобил Шуккур
Заслуженный работник культуры Республики Узбекистан, поэт (Узбекистан)

Рихсиева Гулчехра
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Бенедек Пери
д.ф.н., профессор (Венгрия)

Олимов Кароматилло
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Дадабаев Хамидулла
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Шомусаров Шорустам
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Дю Рье Андре
д.ф.н., профессор (Франция)

Хамроев Джума
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Афтондил Эркинов
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Хасанов Шавкат
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Умурова Гузал
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Халлиева Гулноз
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Алим Лабиб
д.ф.н., профессор (Афганистан)

EDITORIAL BOARD:

Mukhiddinov Muslikhiddin
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Dilorom Salokhiy
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Sodikov Kosimjon
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Binnatova Almaz Ulvi
Doc. of philol. scien., prof. (Azerbaijan)

Tukhliev Bokijon
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Shodmonov Nafas
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Asadov Makhsud
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Yuldoshev Kozokboy
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Jurakulov Uzok
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Funda Toprak
DSc, prof. (Türkiye)

Nabiulina Guzal
DSc., prof. (Tatarstan)

Yusupova Dilnavoz
DSc, prof. (Uzbekistan)

Sirojiddin Khujakulov
DSc, prof. (Uzbekistan)

Rakhim Ibrokhim
DSc, prof. (Afghanistan)

Turobov Abdurakhim
DSc, prof. (Uzbekistan)

Mukhitdinova Badia
DSc, prof. (Uzbekistan)

Mukhammadiyev Akhadjon
DSc, assoc. prof. (Uzbekistan)

Suvonova Jumagul
PhD, assoc. prof. (Uzbekistan)

Mirzayev Rahmatilla
PhD, assoc. prof. (Uzbekistan)

Abdullayeva Albina
PhD, assoc. prof. (Uzbekistan)

Nurova Gulchekhra
PhD, assoc. prof. (Uzbekistan)

Sultanov Tulkin
PhD, assoc. prof. (Uzbekistan)

Ubaydullayev Normuhammad
PhD, assoc. prof. (Uzbekistan)

Ruzmanova Rokhila
Assoc. prof., Exec. Sec. (Uzbekistan)

Narziyeva Ma'mura
PhD, Secretary (Uzbekistan)

SCIENTIFIC ADVISORY BOARD:

Khalmuradov Rustam
Doc. of technic. scien., prof. (Uzbekistan)

Sirojiddinov Shukhrat
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Eshqobil Shukur
Honored Worker of Culture of the Republic of Uzbekistan, poet (Uzbekistan)

Rikhsieva Gulchekhra
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Benedek Peri
Doc. of philol. scien., prof. (Hungary)

Olimov Karomatullo
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Dadaboev Khamidulla
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Shomusarov Shorustam
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Dyu Rye Andre
Doc. of philol. scien., prof. (France)

Khamroev Juma
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Aftondil Erkinov
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Khasanov Shavkat
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Umurova Guzal
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Khallieva Gulnoz
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Alim Labib
Doc. of philol. scien., prof. (Afghanistan)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

NAVOIY VA ADABIY TA'SIR MASALALARI

1. Афтондил ЭРКИНОВ АЛИШЕР НАВОИЙ АСАРЛАРИНИНГ ЭРОН ҚЎЛЁЗМАЛАРИ.....	7
2. Sherxon QORAYEV O'ZBEK XONLIKLARIDA NAVOIYXONLIK TENDENSIYALARI (XIVA XONI MUHAMMAD RAHIMXON FERUZNING "NAVOIYXONLIK" KECHALARI MISOLIDA)...	15
3. Nigora TO'XTAQULOVA ALISHER NAVOIY HIKOYALARINING FOLKLOR BILAN BOG'LANISHI ("MAJOLIS UN-NAFOIS" TAZKIRASI MISOLIDA).....	21
4. Jumagul SUVONOVA ALISHER NAVOIY VA ABDULLA ORIPOV IJODIDA TARBIYAVIY G'OYALAR UZVIYLIGI AN'ANA VA ZAMON TALQINIDA.....	30
5. Zulfiya RASULOVA UZBEKSKO-TADJIKSKIE LITERATURNYE SVYAZI XX VEKA.....	37
6. Sitara QODIRQULOVA ALISHER NAVOIY LIRIKASI TARJIMONI ALEKSANDR NAUMOV HAQIDA.....	43

NAVOIY NASRI VA NAZMI NAFOSATI


1. Shavkat YANGIBOYEV "ILK DEVON" SHE'RLARINING ALISHER NAVOIYNING BOSHQA DEVONLARIGA JORIYLANISHI.....	48
2. Shaxnoza KAXXAROVA ALISHER NAVOIYNING "HOLOTI SAYYID HASAN ARDASHER" MANOQIBIDA KOMIL INSON TALQINI.....	58
3. Sherxon QORAYEV ALISHER NAVOIY "OLIIY MAJLISLARI" VA NADIMLARI.....	70
4. Umida OTAYAROVA "XAMSA"LARNING SO'NGGI DOSTONLARIDA ILM-MA'RIFAT TALQINI.....	79
5. Dilfuza RAXMATOVA NAVOIY G'AZALLARIDA SOLETSIZMNING LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARI.....	85
6. Dilafro'z TAMIKAYEVA ALISHER NAVOIY ASARLARI TILI VA UNI TADQIQ ETISH MASALALARI.....	92

NAVOIY VA TILSHUNOSLIK MASALALARI

1. Umida UBAYDULLAYEVA TILSHUNOSLIKDA LISONIY MANZARA KONSEPSIYASINING SHAKLLANISHI VA ILMIY TALQINLARI.....	99
2. Rustamjon JABBOROV BOBURIYLARNING TURKIY TIL VA ADABIYOT RIVOJIGA QO'SHGAN HISSASI.....	105

TAQRIZ, TAHLIL VA TARJIMA

1. Iroda ISHONXANOVA O'ZBEK ADABIYOTI YO'LBOSHCHISIGA BAG'ISHLANGAN NASHR.....	112
2. Roxila RUZMANOVA TURK DUNYOSINING YIRIK TADQIQOTCHISI.....	122



ISSN: 2181-1419

www.tadqiqot.uz

ALISHER NAVOIY XALQARO JURNALI

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ АЛИШЕР НАВОИЙ

INTERNATIONAL JOURNAL ALISHER NAVOIY

Nigora TO‘XTAQULOVA

1-bosqich magistranti,


Sharof Rashidov nomidagi

Samarqand davlat universiteti,

E-mail: nigoratoxtaqulova56@gmail.com

**ALISHER NAVOIY HIKOYALARINING FOLKLOR BILAN BOG‘LANISHI
(“MAJOLIS UN-NAFOIS” TAZKIRASI MISOLIDA)**

For citation: Tukhtakulova Nigora. THE CONNECTION OF ALISHER NAVOI’S STORIES WITH FOLKLORE (ON THE EXAMPLE OF THE COMMENTARY “MAJOLIS UN-NAFOIS”). Alisher Navoi. 2026, vol. 6, issue 1, pp. 23-31.

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.19412100>

ANNOTATSIYA

So‘z san‘ati – folklor va yozma adabiyot asrlar davomida shakllanib, rivojlanib kelgan murakkab va serqirra jarayondir. Uning taraqqiyotida umumiy qonuniyatlar va tipologik hodisalar muhim o‘rin tutsa-da, har bir xalqning folklori va yozma adabiyoti o‘ziga xos tarixiy zamin, ijtimoiy sharoit, milliy ruh hamda ichki taraqqiyot qonuniyatlari asosida kamol topadi. Aynan mana shu betakror omillar har bir adabiy an‘ananing rang-barangligi va badiiy qimmatini belgilab beradi. Yozma manbalar – badiiy adabiyot, tarixiy asarlar, tazkiralar, memuarlar hamda boshqa turdagi yozma bitiklar, shuningdek, tarjima adabiyot qo‘shni, yaqin va uzoq o‘lkalarda yashovchi xalqlarning boy folklori bilan tanishishda go‘yo ma‘naviy chashma vazifasini o‘tagan. Mazkur maqolada ham Alisher Navoiy ijodiyotining muhim xususiyatlari, tur va janr boyligi, xilma-xilligi haqida so‘z boradi. Shoir Yaqin va O‘rta Sharq xalqlari adabiyotida mavjud va mashhur bo‘lgan ko‘plab asarlar bitgan. Ularda folklorning go‘zal namunalaridan, ayniqsa, hikoyalardan unumli foydalangan. Navoiyning dostonlarida, xususan, “Hayrat ul-abror”, “Sab‘ai sayyor”, “Saddi Iskandariy” va “Lison ut-tayr” dostonlarida, “Mahbub ul-qulub” falsafiy-talimiy asarida, “Tarixi muluki Ajam”, “Tarixi anbiyo va hukamo”, “Nasoyim ul-muhabbat”, “Majolis un-nafois” va boshqalarda ikki yuzdan ziyod hikoya bor. Bu hikoyalar Navoiy ijodiyotida g‘oyaviy-badiiy jihatdan salmoqli o‘rin tutadi. Maqola davomida ko‘proq zamondoshlarining hayoti haqida hikoya qiluvchi “Majolis un-nafois” tazkirasiga to‘xtalib o‘tamiz.

Kalit so‘zlar: hikoya, obraz, an‘anaviy hikoya, yangi hikoya, naql, syujet va kompozitsiya, badiiy to‘qima, memuar, konflikt, optimistik xotima, mumtoz poetik tanqid, “Majolis un-nafois”, hikoyalar genezisi.

Нигора ТУХТАКУЛОВА

магистрант 1-го курса,

Самаркандский государственный университет

имени Шарофа Рашидова,

E-mail: nigoratoxtaqulova56@gmail.com

**СВЯЗЬ РАССКАЗОВ АЛИШЕРА НАВОИ С ФОЛЬКЛОРОМ (НА ПРИМЕРЕ
ТАЗКИРЫ «МАЖОЛИС УН-НАФОИС»)****АННОТАЦИЯ**

Искусство речи – фольклор и письменная литература – представляет собой сложный и многогранный процесс, формировавшийся и развивавшийся на протяжении веков. Хотя общие законы и типологические явления играют важную роль в его развитии, фольклор и письменная литература каждого народа созревают на основе собственного исторического контекста, социальных условий, национального духа и внутренних законов развития. Именно эти уникальные факторы определяют разнообразие и художественную ценность каждой литературной традиции. Письменные источники – художественная литература, исторические труды, тазкиры, мемуары и другие виды письменных текстов, а также переводы – служили своего рода духовным источником для знакомства с богатым фольклором народов, проживающих в соседних, ближних и дальних странах. В данной статье также рассматриваются важные особенности творчества Алишера Навои, богатство и разнообразие жанров и стилей. Поэт написал множество произведений, которые присутствуют и известны в литературе народов Ближнего и Среднего Востока. В них он умело использовал прекрасные образцы фольклора, особенно сказки. В эпосе Навои, в частности, в эпосах «Хайрат уль-аброр», «Сабъаи сайёр», «Садди Искандарий» и «Лисон ут-тайр», в философско-просветительском произведении «Махбуб уль-кулуб», в «Тарихи мулуки Аджам», «Тарихи анбиё ва хукамо», «Насаим уль-мухаббат», «Мажолис ун-нафоис» и другие. Эти рассказы занимают значительное место в творчестве Навои с идейно-художественной точки зрения. В ходе статьи мы остановимся подробнее на комментарии «Мажолис ун-нафоис», повествующем о жизни его современников.

Ключевые слова: рассказ, образ, традиционный рассказ, новый рассказ, повествование, сюжет и композиция, художественная фактура, мемуары, конфликт, оптимистический финал, классическая поэтическая критика, «Мажолис ун-нафоис», генезис рассказов.

Nigora TUKHTAKULOVA

1st-year Master's student,

Samarkand State University

named after Sharof Rashidov,

E-mail: nigoratoxtaqulova56@gmail.com

**THE CONNECTION OF ALISHER NAVOI'S STORIES WITH FOLKLORE (ON THE
EXAMPLE OF THE COMMENTARY "MAJOLIS UN-NAFOIS")****ABSTRACT**

The art of speech – folklore and written literature – is a complex and multifaceted process that has been formed and developed over the centuries. Although general laws and typological phenomena play an important role in its development, the folklore and written literature of each people mature on the basis of its own historical background, social conditions, national spirit, and internal development laws. It is these unique factors that determine the diversity and artistic value of each literary tradition. Written sources – fiction, historical works, tazkiras, memoirs and other types of written texts, as well as translated literature, served as a kind of spiritual spring for getting acquainted with the rich folklore of peoples living in neighboring, near and far countries. This article also discusses the important features of Alisher Navoi's creativity, the richness and diversity of types and genres. The poet wrote many works that are present and famous in the literature of the peoples of the Near and Middle East. In them, he made effective use of beautiful examples of folklore, especially stories. There are more than two hundred stories in Navoi's epics, in particular, in the epics "Khairat ul-abror", "Sab'ai sayyor", "Saddi Iskandariy" and "Lison ut-tayr", in the philosophical and educational work "Mahbub ul-qulub", in "Tarikhi muluki Ajam", "Tarikhi anbiyo va hukamo",

"Nasayim ul-muhabbat", "Majolis un-nafois" and others. These stories occupy a significant place in Navoi's creative work from an ideological and artistic point of view. In the course of the article, we will focus more on the commentary "Majolis un-nafois", which tells about the lives of his contemporaries.

Keywords: story, image, traditional story, new story, narration, plot and composition, artistic texture, memoir, conflict, optimistic ending, classical poetic criticism, "Majolis un-nafois", genesis of stories.

Alisher Navoiy va xalq ijodiyoti o'rtasidagi munosabat masalasi navoiyshunoslik fanining eng muhim, murakkab va doimiy ilmiy bahs-munozaralarga sabab bo'lib kelayotgan yo'nalishlaridan biridir. Ushbu masala Navoiyning buyuk shoir va mutafakkir sifatida shakllanish jarayonini, uning badiiy-estetik qarashlari hamda ijodiy dunyosining takomil topishida xalq og'zaki ijodining tutgan o'rnini aniqlash bilan chambarchas bog'liqdir. Ayniqsa, shoirning folklor manbalaridan qanday darajada va qaysi shakllarda ijodiy foydalangani, ularni mumtoz yozma adabiyot mezonlari asosida qayta ishlagani masalalari alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Mazkur ilmiy bahs doirasida Alisher Navoiyning xalq ijodiy merosiga ko'rsatgan ta'siri ham muhim tadqiqot obyektlaridan biri hisoblanadi. Xususan, Navoiyning badiiy asarlari, hikoyalari va g'oyaviy qarashlari keyingi davr xalq og'zaki ijodida, jumladan, rivoyatlar, dostonlar, afsona va latifalarda aks etishi, shoir obrazining xalq tasavvurida shakllanishi va boyib borishi jarayonlari folklorshunoslik nuqtayi nazaridan chuqur tahlil etishni talab qiladi. Bu holat Navoiyning nafaqat yozma adabiyotdagi, balki xalq ongidagi badiiy-ma'naviy mavqeyini ham belgilaydi.

Shuningdek, Alisher Navoiy va xalq ijodiyoti o'rtasidagi munosabatni o'rganish jarayonida shoirning folklor an'alarini davom ettiruvchi, ularni yangi estetik bosqichga ko'taruvchi ijodkor sifatidagi o'rni ham alohida e'tiborga olinadi. Navoiy ijodida xalqona tafakkur, xalq didi va xalq ma'naviyati bilan bog'liq unsurlar yozma adabiyot imkoniyatlari orqali yanada mukammal shakl kasb etadi. Shu jihatdan, mazkur bahs Navoiyning ijodiy fenomen sifatidagi qirralarini ochib berish, uning xalq va adabiyot o'rtasidagi o'ziga xos ko'priklarini vazifasini ilmiy asosda yoritishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, Alisher Navoiy va xalq ijodiyoti masalasi shoir ijodining manbaviy asoslarini, badiiy tafakkurining ildizlarini hamda uning xalq ma'naviy hayotiga ko'rsatgan uzoq muddatli ta'sirini aniqlashda muhim ilmiy-metodologik ahamiyatga ega bo'lib, navoiyshunoslik va folklorshunoslik fanlari kesishgan nuqtada joylashgan dolzarb tadqiqot yo'nalishlaridan biri sifatida baholanadi.

O'zbek mumtoz adabiyotining yirik namoyandasi Alisher Navoiy ijodi ko'p qirrali bo'lib, unda badiiy tafakkur, tarixiy-ma'naviy tafsilotlar hamda xalq og'zaki ijodi an'analari uzviy ravishda uyg'unlashgan. Shoirning adabiy-merosida alohida o'rin tutuvchi "Majolis un-nafois" asari nafaqat tazkira janrining yetuk namunasi, balki unda uchraydigan hikoyaviy lavhalar, rivoyatlar va hayotiy voqealar orqali Sharq hikoyachiligi hamda xalq og'zaki ijodi bilan bevosita bog'liq bo'lgan muhim manba sifatida ham e'tiborga loyiqdir.

"Majolis un-nafois" asarida adiblar, shoirlar va mashhur shaxslar hayotiga oid hikoyalar, ibratli voqealar hamda xalq orasida keng tarqalgan rivoyat va latifalarga xos syujetlar uchraydi. Bu hikoyalar o'zining soddaligi, hayotiyligi, xalqona ruhda bayon etilishi bilan og'zaki adabiyot namunalariga yaqin turadi. Mazkur jihat asarni faqatgina adabiy-biografik manba sifatidagina emas, balki xalq hikoyachiligi an'alarining yozma adabiyotdagi aks-sadosi sifatida ham o'rganish imkonini beradi.

Alisher Navoiy xalq og'zaki ijodiga xos bo'lgan syujetlar, obrazlar va badiiy tafakkur uslubidan ijodiy foydalanar ekan, ularni mumtoz adabiyotning estetik mezonlari asosida qayta ishlab, yangi mazmun va badiiy sifat bilan boyitadi. Natijada "Majolis un-nafois"dagi hikoyaviy parchalar xalq og'zaki ijodining genetik ildizlari, mavzu va motivlari bilan uzviy bog'langan holda shakllanib, o'ziga xos yozma-badiiy talqinga ega bo'ladi.

O'zbek folkloristikasining qo'lga kiritgan yutuqlari, ko'plab asarlarning yozib olinishi, nashr etilishi va chuqur tadqiq qilinishi yozma adabiyot bilan xalq og'zaki ijodi o'rtasidagi uzviy aloqalarni o'rganishda beqiyos ahamiyat kasb etadi. Ayni paytda mumtoz adabiyotga oid izlanishlar xalq

og‘zaki ijodining vaqt o‘tishi bilan unutilib borayotgan sahifalarini qayta tiklash, uning ayrim muhim xususiyatlarini yoritishga xizmat qiladi. Shu tariqa, yozma va og‘zaki adabiyot bir-birini boyitib, milliy adabiy tafakkur taraqqiyotiga mustahkam zamin yaratadi. O‘zbek klassik adabiyoti va folklor muammosining ko‘p masalalari ulug‘ o‘zbek shoiri va mutafakkiri Alisher Navoiy ijodida mujassamlanadi. Bu tabiiy. Chunki Alisher Navoiy o‘zbek klassik adabiyotining, o‘zbek adabiy tilining muassisidir. Uning faoliyati xalqqa muhabbat, unga xizmat qilish, xalq san‘ati boyliklarini, uning tilini ardoqlash va xalq chashmalaridan ijodiy foydalanishning yuksak va yorqin timsolidir. Bunday ulug‘ siymoning xalq qalbidan mangu o‘rin olishi, uning oliy hurmatga sazovor bo‘lishi va xalq ijodiga samarali ta‘sir etishi ham tabiiydir [Mallayev, 1974: 15].

Alisher Navoiy jahon adabiyotining ulug‘ namoyandalaridan biri sifatida insoniyat tarixida betakror iz qoldirdi. Butun ijodiy faoliyati va hayotini insonning baxt-saodatiga erishishi, xalqning osoyishtaligini ta‘minlash, feodal urushlarning oldini olish, obodonchilik va madaniy taraqqiyotga hissa qo‘shish yo‘lida bag‘ishladi. Navoiy ulug‘ gumanist, tadbirkor davlat arbobi, o‘zbek adabiy tilining muassisi va o‘zbek klassik adabiyotini yangi taraqqiyot pog‘onasiga ko‘tarishga muvaffaq bo‘lgan buyuk so‘z san‘atkori, qomuschi alloma sifatida shakllandi. Nihoyatda ijodiy va mehnatkash bo‘lib, ko‘plab asarlar yaratdi; davrining madaniy hayotiga rahbarlik qildi, ilm-fan, san‘at va adabiyot ahli homiyiga aylandi, shuningdek, ko‘plab shogirdlar yetishtirib, ustoz sifatidagi buyuk meros qoldirdi. Navoiy ijodi – nafaqat o‘zbek, balki jahon madaniyati va adabiyotining bebaho boyligi, insoniyat ruhiyatiga yorqin nur sochgan madaniy yodgorligidir [Qorayev, 2020: 16].

Alisher Navoiyning ijodiy faoliyati va merosini o‘rganish uzoq va murakkab tarixga egadir. Bu tarix XV asrning o‘zidan, Navoiy zamondoshlarining asarlaridan boshlanadi. Qariyb besh asrga yaqin davr ichida Navoiyning faoliyati va merosini o‘rganish murakkab taraqqiyot bosqichlarini bosib o‘tdi, desak aslo mubolag‘a bo‘lmaydi. “Pushkin, – degan edi V.G.Belinskiy, – abadiy yashaydigan va doimo harakatda bo‘ladigan, o‘limga qaysi nuqtada uchragan bo‘lsa, o‘sha nuqtada xotir qolmaydigan, balki jamiyatning ongida o‘sib boraveradigan hodisalar jumlasidandir. Har bir davr ular haqida o‘z hukmini chiqaradi va bu davr o‘sha hodisalarni qanchalik to‘g‘ri anglamasin, hamma vaqt o‘zidan keyingi davr uchun ular haqida qandaydir yangiroq va ancha to‘g‘riroq fikr bayon qilishga o‘rin qoladi” [Belinskiy, 1948: 158]. V.G.Belinskiyning bu so‘zlarini Alisher Navoiy va navoiyshunoslikka ham tatbiq etish mumkin.

Ushbu muhim mavzular 30-yillarning oxirlaridan boshlab ilm-fan ahli, navoiyshunos olimlar e‘tiborini o‘ziga jalb qilgan va bugunga qadar ham o‘rganib, tahlil qilinib va yangi tadqiqotlar bilan boyitilmoqda. Navoiy va xalq ijodiyoti o‘rtasidagi bog‘liqlik, uning turli janr va shakllardagi ijodiy merosi orqali xalq ruhiyatiga, madaniyatiga va estetik didiga ko‘rsatgan ta‘siri, bugungi kunda ham o‘zbek adabiy tafakkuri va navoiyshunoslik izlanishlarining markazida turibdi. Shu tariqa, Alisher Navoiy nafaqat o‘z davrining, balki keyingi avlodlarning ijodiy, ma‘naviy va madaniy rivojlanishida ham ulkan rol o‘ynagan buyuk shaxs sifatida qadrlanadi.

Alisher Navoiy ijodiyotining eng muhim xususiyatlaridan biri uning tur va janrlar bo‘yicha boyligi hamda xilma-xilligidir. Uning mashhur “Xazoyin ul-maoniy” lirik to‘plami o‘z ichida 16 janrni qamrab oladi: g‘azal, mustahzod, muxammas, musaddas, musamman, tarji‘band, tarkibband, masnaviy, qasida, soqiynoma, qit‘a, ruboiy, tuyuq, muammo, chiston va fard. Har bir janr Navoiy ijodiy dunyosining boy rang-barangligini, so‘z san‘atida ustaligi va estetik didining yuqori darajasini namoyon etadi. Shuningdek, u epik janrlarning turli shakllarida ham (doston, qissa, hikoya, masal, latifa va boshqa) asarlar yaratdi. Yetakchi bo‘lgan she‘riy formadan tashqari, nisbatan kamroq rivojlangan nasr shakllaridan ham faol foydalandi, so‘z san‘atining turli-tuman “uslub” va “qoidalar”idan bahramand bo‘ldi. Shu tariqa, Navoiyning ijodi nafaqat o‘z davrining, balki keyingi avlodlarning ham adabiy didi va ma‘naviy dunyosini boyituvchi boy meros sifatida qadrlanadi.

Hikoya Navoiyning ijodiyotida alohida salmoqli o‘rin egallaydigan janrlardan biridir. Alisher Navoiy maxsus hikoyalar to‘plamini yaratmagan, faqat hikoyalardan iborat asar yozmagan bo‘lsa ham uning ijodini hikoyalarsiz tasavvur qilish mumkin emas. Hikoyalar Navoiyning ijodiy dunyosida g‘oyaviy va badiiy jihatdan muhim vazifani bajaradi, ularning har biri insoniy qadriyatlarni, ma‘naviy o‘sishni va adabiy tafakkurni boyitadi. Uning dostonlarida, xususan “Hayrat ul-abror”, “Sab‘ai sayyor”, “Saddi Iskandariy” va “Lison ut-tayr” dostonlarida, “Mahbub ul-qulub” falsafiy-ta‘limiy

asarida, shuningdek, “Tarixi muluki Ajam”, “Tarixi anbiyo va hukamo”, “Nasoim ul-muhabbat” kabi asarlarida ikki yuzdan ziyod hikoya mavjud. Har bir hikoya o‘ziga xos mavzu, obraz va g‘oya bilan Navoiyning ijodiy dunyosini boyitadi va uning adabiy merosida hal qiluvchi o‘rin egallaydi. Shu tariqa, hikoyalar Navoiyning g‘oyaviy-badiiy olamining ajralmas qismi sifatida o‘quvchi va tadqiqotchi uchun doimo qimmatli manba bo‘lib xizmat qiladi [Safarov, 2010: 73].

Navoiyning hikoyalari mavzusi, g‘oyaviy mazmuni, obrazlari va badiiy uslubi jihatidan nihoyatda xilma-xildir. Ularning aksariyati axloq-odob, ilm-ma‘rifat, insof-adolat, sevgi va sadoqat, mehnat va mehmondo‘stlik kabi muhim masalalarga bag‘ishlangan dunyoviy hikoyalardir. Shu kabi hikoyalar «Nasoyim ul-muhabbat», “Tarixi anbiyo va hukamo” kabi asarlarida ham o‘ziga xos o‘rin egallagan va o‘quvchiga chuqur ta‘sir qiladi. Navoiyning hikoyalaridagi qahramonlar ko‘pincha tarixiy yoki yarim afsonaviy shaxslarning nomi bilan ataladi, lekin ularning orasida “sof”, xayoliy va to‘qima obrazlar ham ko‘p uchraydi. Har bir hikoya nafaqat voqea-hodisalarni yetkazish, balki inson ruhiyati, axloqiy qadriyatlar va jamiyat hayotini yoritishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Shu tariqa, Navoiyning hikoyalari uning ijodiy merosida ajralmas qism sifatida o‘quvchi va tadqiqotchiga doimo qimmatli manba bo‘lib qoladi.

Alisher Navoiy ijodidan o‘rin olgan hikoyalari ikkiga – an‘anaviy hikoya va yangi hikoya (to‘g‘rirog‘i, naql va latifa)larga bo‘lish mumkin. An‘anaviy hikoyalar xalq orasida keng tarqalgan, azaldan mavjud bo‘lib, qayta ishlangan hikoyalardir. Yangilari esa ko‘proq Navoiyning zamondoshlari haqida konkret voqea va hodisalar munosabati bilan vujudga kelgan naql va latifalardir (bunday naql va latifalar “Majolis un-nafois” tazkirasida, “Xamsat ul-mutahhayirin”, “Holoti Sayyid Hasan Ardasher” kabi adabiy-biografik asarlar tarkibidan o‘rin olgan) [Mallayev 1974: 187]. An‘anaviy hikoyalar Navoiyning davriga qadar yetib kelgan yozma va og‘zaki manbalar orqali saqlangan asarlar hisoblanadi. Ularni qat‘iy “yozma” va “og‘zaki” deb ajratish shartli bo‘lsa-da, bu tasnif ularning mazmuni va ildizlarini tushinishda muhimdir. Ko‘p yozma manbalarda saqlangan hikoyalar sof kitobiy ijod mahsuli emas; ular folklor an‘analari asosida shakllangan, xalq og‘zaki ijodidan ilhomlangan asarlardir. Bu hikoyalarning g‘oyaviy-badiiy boyligi – xalqchilligi, obrazlar tizimi, syujet va kompozitsiyasi, uslubi orqali yaqqol seziladi. Avval biron shaxs tomonidan yaratilgan bu hikoyalar vaqt o‘tishi bilan og‘izdan og‘izga, kitobdan kitobga o‘tib, sayqal va mukammallik kasb etadi. Shu jarayonda muallifning nomi unutilib, asar butunlay xalq ijodiyati bisotiga qo‘shiladi va tarixiy, madaniy meros sifatida qadrlanadi. An‘anaviy hikoyalar nafaqat Navoiy ijodiy olamining ajralmas qismi, balki xalq tafakkuri va badiiy didining yorqin manbayi sifatida bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini saqlab qolmoqda.

Alisher Navoiyning asarlaridagi ko‘pchilik hikoyalar, ular qaysi manba asosida yaratilgan bo‘lishiga qaramay, o‘z g‘oyaviy va badiiy xususiyatlari bilan xalq hikoyalari ruhiga uyg‘unlashadi. Bu uyg‘unlik Navoiyning hikoyalaridagi qahramonlar obrazlarida yaqqol namoyon bo‘ladi: ularning ma‘naviy barkamolligi, xarakterlarining jonli qiyofasi o‘quvchini o‘ziga jalb qiladi. Hikoyalardagi o‘tkir konfliktlar, yumshoq va muloyim hazil tuyg‘usi, an‘anaviy boshlanish va favqulodda tugunlar, optimistik xotima, mo‘jaz ifoda va sodda, ravon bayon – bularning barchasi shoir ijodiy uslubining nozik va betakror xususiyatlarini ochib beradi.

Alisher Navoiy hikoyalari nafaqat o‘z davrining adabiy-estetik ehtiyojlariga javob bergan, balki keyingi asrlarda yashab ijod qilgan adiblar hamda kitobxon avlodlarning adabiy tafakkuri va badiiy didini shakllantirishda muhim o‘rin tutgan nodir badiiy asarlar sifatida yuksak baholanadi. Mazkur hikoyalar o‘zining g‘oyaviy-teranligi, badiiy mukammalligi hamda xalqona ruh bilan sug‘orilgani bois adabiy jarayonning uzviy davomiyligini ta‘minlovchi muhim omillardan biri bo‘lib xizmat qilgan.

Navoiyning hikoyalari g‘oyaviy va badiiy unsurlarning uyg‘unligi xalq hikoyalari an‘analari bilan mushtarak holda namoyon bo‘lib, yozma adabiyot va og‘zaki ijod o‘rtasidagi ijodiy sintezni yuzaga keltiradi. Natijada syujetlarning hayotiyliigi, obrazlarning ta‘sirchanligi hamda axloqiy-falsafiy g‘oyalarning xalqona ifodasi orqali butunlay yangi, jonli va esda qolarli badiiy olam yaratiladi. Ushbu badiiy olam o‘zining umumiy insoniy qadriyatlarini tarannum etishi, ijtimoiy-axloqiy muammolarni teran yoritishi bilan ajralib turadi.

Shu jihatdan, Alisher Navoiy hikoyalari mumtoz o‘zbek adabiyotining yuksak badiiy yutug‘i bo‘lib, ularning xalq ijodiy an‘analari bilan uzviy bog‘liqligi adabiy merosning tarixiy davomiyligi va estetik barqarorligini ta‘minlagan muhim omil sifatida ilmiy tadqiqotlar uchun doimiy ahamiyat kasb etadi.

Endi yuqorida bayon etilgan nazariy fikrlar va ilmiy mulohazalar asosida Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois” asaridan o‘rin olgan ayrim hikoyalarni ko‘rib chiqish hamda ularni tahlil etish maqsadga muvofiqdir. Mazkur tazkirada keltirilgan hikoyalar, avvalo, Alisher Navoiyning zamondoshlari bo‘lgan mashhur adiblar, ulamolar va ijod ahlining hayoti, badiiy qarashlari hamda ma‘naviy-axloqiy fazilatlar haqida muhim ma‘lumot beradi. Shu jihatdan, “Majolis un-nafois”dagi hikoyalar tarixiy-biografik mazmun bilan bir qatorda, chuqur estetik va badiiy-falsafiy ahamiyatga ham ega.

Tazkirada bayon etilgan hikoyalardan biri Mavlono Lutfiyning Amir Xusrav ijodiga bergan nozik badiiy talqini va unga Sulton tomonidan bildirilgan munosabat bilan bog‘liqdir. Ushbu hikoya orqali Navoiy Sharq adabiyotiga xos bo‘lgan nozik badiiy tafakkur, obrazli fikrlash va estetik did masalalarini yoritadi. Hikoyada Mavlono Lutfiy Amir Xusravning hindcha she‘rlaridan birida uchraydigan nihoyatda nafis va g‘aroyib badiiy tasvirni Alisher Navoiyga bayon qiladi.

Mazkur lavhada bahor manzarasi fonida yaratilgan ramziy obraz tasvirlanadi: yomg‘ir yog‘ib, yer loy bo‘lgan bir paytda mahbuba toyib yiqilay degan lahzada, o‘zining nihoyatda nozikligi tufayli, yomg‘ir tomchisining ipday tasavvur etilgan rishtasidan tutib, yana o‘rnidan turadi. Bu tasvir Sharq she‘riyatiga xos bo‘lgan mubolag‘a, ramziylik va tasavvuriy tafakkurning yorqin namunasi. Mavlono Lutfiy ushbu nozik ma‘noni Amir Xusravning badiiy tafakkurining yuksak namunasi sifatida baholab, Navoiyni ham bundan bahramand etadi.

Alisher Navoiy mazkur ma‘noni eshitgach, Amir Xusravning bunday nozik xayoliga yuksak baho beradi va unga ofarinlar aytadi. Shoir bu hikoyani ilm ahlari va so‘z ixlosmandlari orasida targ‘ib qiladi, shuningdek, Sohibqiron Sultonning oliy majlislarida ham bayon etib, uni yuksak did egalari tomonidan ma‘qullanishiga umid bildiradi. Biroq Sultonning Amir Xusrav tasavvuriga nisbatan e‘tirozi borligini bilgach, Navoiy hayratga tushadi. Bu holat hikoyada badiiy did va estetik qarashlarning turlicha talqin qilinishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Shundan so‘ng Alisher Navoiy oliy majlisda kamtarlik bilan yer o‘pib arz etadi va Sultonning mazkur e‘tirozini o‘zining qimmatli va teran so‘zlari bilan bayon etishini iltimos qiladi. Ushbu lavha nafaqat adabiy-estetik munozaraning namunasi, balki Navoiyning ilm va san‘at ahliga bo‘lgan hurmati, mulohazaga ochiqligi hamda badiiy haqiqatni chuqur anglashga intilgan ijodiy pozitsiyasini aks ettiradi.

Mazkur hikoya mazmuni va badiiy qurilishi jihatidan xalq og‘zaki ijodiga xos bo‘lgan tasavvuriy tafakkur va ramziy obrazlilik bilan mushtaraklik kasb etadi. Xususan, yomg‘ir tomchisining “rishta” sifatida tasavvur qilinishi, mahbubaning nihoyatda nozikligi tufayli ushbu rishtadan tutib qolishi kabi tasvirlar xalq hikoyalari va rivoyatlarida tez-tez uchraydigan mubolag‘a va badiiy shartlilikka asoslangan obrazlar tizimini eslatadi. Xalq og‘zaki ijodida tabiat hodisalarini jonlantirish, ularni insoniy fazilatlar bilan bog‘lab tasvirlash keng tarqalgan bo‘lib, ushbu hikoyadagi badiiy manzara ham ana shu an‘ananing yozma adabiyotdagi badiiy talqini sifatida namoyon bo‘ladi.

Shu bilan birga, hikoyada xalqona tasavvur bilan mumtoz adabiyotga xos nozik estetik did uyg‘unlashadi. Agar xalq hikoyalari bunday mubolag‘alar ko‘proq hayrat uyg‘otish yoki ibrat berish maqsadiga xizmat qilsa, Navoiy bu tasvirni adabiy-estetik bahs maydoniga olib chiqadi. Mavlono Lutfiy tomonidan keltirilgan misol va Amir Xusrav ijodiga berilgan yuksak baho badiiy tafakkur darajasini ko‘rsatish vositasiga aylanadi. Bu esa Navoiyning xalqona obrazni chuqur badiiy-falsafiy mazmun bilan boyitganini ko‘rsatadi.

Hikoyada Sohibqiron Sultonning mazkur tasavvurga bildirgan e‘tirozi esa xalqona badiiy fikr bilan oliy did mezonlari o‘rtasidagi munosabatni ochib beradi. Bu holat Sharq adabiy muhitida badiiy asarning qabul qilinishi, talqin etilishi va baholanishi jarayonining murakkabligini aks ettiradi. Ayniqsa, Navoiyning bu munozaraga kamtarlik bilan, ilmiy va estetik hurmat asosida yondashishi uning ijodkor sifatidagi yetukligini namoyon etadi.

Demak, “Majolis un-nafois”dagi ushbu hikoya xalq og‘zaki ijodiga xos badiiy tafakkur unsurlarining yozma adabiyot doirasida qayta ishlanishi va yangi estetik bosqichga ko‘tarilganining yaqqol namunasi hisoblanadi. Bu esa Navoiyning xalq ijodiy merosini chuqur anglab, uni mumtoz adabiyot taraqqiyotiga xizmat qildirgan buyuk ijodkor ekanini yana bir bor tasdiqlaydi.

Umuman olganda, mazkur hikoya “Majolis un-nafois” asaridagi hikoyaviy lavhalarning xalqona tasavvur, badiiy ramziylik va estetik bahslar bilan uyg‘unlashgan holda shakllanganini yaqqol ko‘rsatadi hamda Navoiyning hikoyachilik mahoratini, uning Sharq adabiy tafakkuri an‘analarini chuqur anglagan ijodkor ekanini tasdiqlaydi.

“Dedilarkim, ul e’tiroz budurkim, ul yog‘in qatrasini yuqoridin quyi inib keladur, muqarrardurkim, rishtasig‘a dag‘i hamul holdur. Rishtaikim, mayli quyi bo‘lg‘ay, aning madadi bila yiqiladurg‘on o‘zini asramog‘i maholdur. Ul hazrat bu e’tirozni naql qilg‘ach, faqir bildimkim, men va har kishi hamkim, bu ma‘noni eshitib, tahsin qilibdurbiz – barcha g‘alat qilg‘on ermis‘biz. Quloq tutub o‘z nuqsi tab‘img‘a mu‘tarif bo‘ldim. Andin so‘ng ul hazrat dedilarki, bu bayt andoq bo‘lubturki, e’tiroz mahalli yo‘qturkim:

Za‘fdin kulbamda qo‘pmoq istasam aylar madad, Ankabute rishta osqon bo‘lsa har devorg‘a. Umid ulkim, mundoq sof tab‘ kuzgusiga hargiz davron havodisidan g‘ubore o‘lturmag‘ay va mundoq ravshan zehn sham‘in hargiz navoyibi sarsari o‘churmagay. [Navoiy, www.ziyouz.com: 123].

Ya‘ni Sulton aytadiki, yomg‘ir tomchisi yuqoridan pastga tushadi, demak uning ipi (yomg‘ir rishtasi) ham pastga moyil bo‘ladi. Pastga osilib turgan ip yordamida yiqilayotgan odamning o‘zini tutib qolishi mumkin emas.

Bu e’tirozni eshitgach, Alisher Navoiy o‘z didining kamchilikka yo‘l qo‘yganini payqaydi, xato qilganini anglaydi. Sulton aytadi: Mana bu baytda hech qanday e’tirozga o‘rin yo‘q:

Za‘fdin kulbamda qo‘pmoq istasam aylar madad, Ankabute rishta osqon bo‘lsa har devorg‘a.

Ya‘ni: Agar kuchsizlikdan kulbamda turmoqchi bo‘lsam, har devorda o‘rgimchak ipi osilgan bo‘lsa, u menga madad bo‘lur. So‘ngra umid bildirib aytadilar: bunday sof did oynasiga zamon hodisalari hech qachon g‘ubor solmasin va bunday ravshan zehn sham‘ini hech qachon shamollar o‘chirib yubormasin.

Bu hikoyadan anglashiladiki, badiiy xayol nafaqat chiroyli va nozik ifoda etilishi, balki mantiqan puxta bo‘lish kerakligini ham taqazo etadi. Sultonning e’tirozi o‘z o‘rnida mumtoz poetik tanqidning yuksak namunasi hisoblanadi. Navoiy bu hikoyada adabiy didning yuksakligi, tanqidiy tafakkurning teranligini va kamtarlikni targ‘ib etadi.

Navbatdagi hikoya ham mana shunday chuqur ma‘no-mazmun kasb etadi.

“Mavlono Qabuliy degan kichik yoshliq yigit Qunduz va Hisor tarafidin kelib erdi, tab‘i turkiy va forsiy nazmga muloyim erdi. Oliy majlisga musharraf bo‘lub, podshohona tahsin va ehsonqa ham sarafroz bo‘lub erdi. Bir kun bir turkiy g‘azalki, matla‘i budurkim:

Na‘l kestim dardi afzun bo‘ldiyu kam bo‘lmadi, Dog‘ qo‘ydum so‘zi kam bo‘lg‘ay debon, ham bo‘lmadi aytib kelib erdi kim, yuqori arz qilg‘ay. Faqirga berdikim, tegrasida evrulg‘aymen va xotirg‘a kelganni anga aytg‘aymen. Chun o‘qudum, “ham bo‘lmadi” qofiyasini yaxshi aytmaydur erdi. Derdimkim, yaxshi qofiyasi budur, mundin yaxshiroq bog‘lasang bo‘lur erdi. Ul dedikim, men xili tashvish torttim, yaxshi bog‘lay olmadim. Albatta, bu qofiyani siz bog‘lang. Chun mubolag‘a qildi, faqir ul qofiyani bog‘ladim...”

Navoiy Qabuliyning qofiyani to‘g‘rilash haqidagi iltimosini yerda qoldira olmay, uni amalga oshiradi. So‘ngra bu she‘r navvoblardan biri vositasida oliy majlisga yetkaziladi. Hazrat bu she‘rni o‘qib ko‘rib uning qofiyasi Qabuliy ijodidan emasligini tushunadi va buni kim yozganligini so‘rab Navoiyni so‘roqqa tutadi. Navoiy oxir – oqibat “muborak xotirangiz ilohiy ilhomlar manbayi bo‘lgani uchun bu narsa sizga ayon bo‘lsa, men qanday inkor qilay”, deya asta javob qaytaradi. Keyin Qabuliy saroyga chaqiriladi. Ko‘pchilik bu yosh shoirning izza qilinishini o‘ylaydi, ammo donishmand Hazrat bunday qilmaydi. Bu orqali u, ya‘ni davlat sohibi o‘zining go‘zal xulqi, yuksak fazilati, baland idroki, sof tabiati va pok zehni namoyon etadi.

Hikoyada adabiy tanqidning madaniyati ifoda etilgan, ayb topilgan bo‘lsa ham ochiqcha kamsitish yaxshi emasligi eslatib o‘tiladi.

Darhaqiqat, Alisher Navoiy hikoyalarining aksariyati bevosita yoki bilvosita tarzda xalq og‘zaki ijodi bilan uzviy aloqadorlikda shakllangan. Buyuk shoir xalq hikoyalariga xos bo‘lgan syujet qurilishi, kompozitsion yaxlitlik, an’anaviy obrazlar tizimi hamda badiiy tasvir vositalaridan ijodiy va tanqidiy ruhda foydalanib, ularni mumtoz yozma adabiyot talablariga mos ravishda qayta ishlaydi. Shu jarayonda Navoiy xalq ijodiyotining mohiyatini tashkil etuvchi soddalik, hayotiylik, xalqona tafakkur va didaktik yo‘nalishni saqlab qolishga alohida e’tibor qaratadi.

Natijada Navoiy hikoyalarida xalq hikoyachiligiga xos bo‘lgan muhim belgilarning davomiyligi yaqqol namoyon bo‘ladi. Jumladan, voqealarning mantiqiy va ravon bayoni, obrazlarning hayotiyliigi, axloqiy-falsafiy g‘oyalarning oddiy, ammo ta’sirchan syujetlar orqali ifodalanishi shoir hikoyalarining xalq ruhiga yaqinligini ta’minlaydi. Bu holat Navoiyning badiiy mahorati, xalq ijodiy merosiga bo‘lgan chuqur hurmati va uni rivojlantirishga intilgan ijodiy pozitsiyasi bilan izohlanadi.

Shu bois Alisher Navoiy hikoyalari nafaqat adabiy-estetik jihatdan, balki xalqning ma’naviy dunyosi, axloqiy qarashlari va ijtimoiy hayotini aks ettiruvchi muhim manba sifatida ham alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi. Ularning soddaligi va ravonligi tashqi jihatdan xalqona bo‘lsa-da, mazmunan chuqur falsafiy va ma’rifiy g‘oyalarni o‘zida mujassam etgani Navoiy hikoyachiligining o‘ziga xosligini belgilab beradi.

Xalq og‘zaki ijodi namunalaridan, xususan, xalq hikoyalaridan ijodiy foydalanish tajribasi va bu boradagi adabiy an’analar Alisher Navoiy ijodida yuksak badiiy darajada umumlashtirilib, keyingi davr adabiy jarayoniga sezilarli va barqaror ta’sir ko‘rsatdi. Navoiy xalq hikoyachiligiga xos syujetlar, obrazlar tizimi va didaktik yo‘nalishni mumtoz yozma adabiyot mezonlari bilan uyg‘unlashtirib, ularni yangi badiiy-estetik bosqichga olib chiqdi. Natijada mazkur ijodiy tajriba keyingi avlod adiblari uchun muhim namuna va tayanch manba vazifasini bajardi.

Xususan, o‘zbek adabiyoti tarixida mashhur hikoyanavis sifatida tanilgan Xoja hamda buyuk masalchi va satirik adib Gulxaniy ijodida Navoiy hikoyachilik maktabining samarali davom etganini yaqqol kuzatish mumkin. Ularning asarlarida xalqona hikoya qilish uslubi, ramziy obrazlardan foydalanish, axloqiy-ta’limiy g‘oyalarni badiiy syujet orqali ifodalash kabi jihatlar Navoiy an’analari bilan uzviy bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, Gulxaniy masallarida hikoyaviy soddalik va chuqur ijtimoiy-falsafiy mazmunning uyg‘unligi Navoiy ta’sirining muhim ko‘rinishlaridan biri sifatida baholanadi.

Shu ma’noda, Alisher Navoiy hikoyachiligi nafaqat o‘z davri adabiyotida, balki undan keyingi asrlarda ham ijod qilgan adiblar uchun yirik badiiy maktab vazifasini o‘tadi. Bu maktab doirasida shakllangan badiiy tamoyillar, hikoyaviy tafakkur uslubi va estetik mezonlar o‘zbek mumtoz adabiyotining uzluksiz taraqqiyotini ta’minlagan muhim omillardan biri sifatida alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Alisher Navoiy ijodida uchraydigan hikoyaviy matnlarni jamlab, ularni alohida to‘plam holida kitobxonlar ommasiga taqdim etish, shuningdek, mazkur hikoyalarni mavzu, janr, syujet va badiiy-falsafiy xususiyatlariga ko‘ra tizimli ravishda tasniflash hamda chuqur ilmiy tahlil etish bugungi adabiyotshunoslik oldida turgan dolzarb ilmiy vazifalardan biri hisoblanadi. Navoiy hikoyalari shoirning g‘oyaviy-estetik qarashlari, axloqiy-falsafiy konsepsiyasi hamda Sharq mumtoz adabiy an’analari bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ularni alohida tadqiqot obyekti sifatida o‘rganish Navoiy ijodining yanada mukammal talqinini ta’minlaydi.

Shu bilan birga, Sharq hikoyachiligi tarixini izchil o‘rganish, ayrim hikoyalarning genezisi, ya’ni kelib chiqish manbalari, shakllanish jarayoni hamda tarixiy taraqqiyot bosqichlarini aniqlash maxsus ilmiy yondashuvni talab etadi. Bunday tadqiqotlar doirasida hikoyalar katalogini yaratish, ularni turli davrlar, turli madaniy muhitlar, xalqlar va mualliflar ijodi bilan qiyosiy tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, syujetlarning ko‘chishi, motiv va obrazlarning transformatsiyasi, badiiy talqinlarning o‘ziga xosligi kabi masalalarni o‘rganish Sharq hikoyachiligi taraqqiyotining umumiy qonuniyatlarini ochib berishga xizmat qiladi.

Ana shunday keng qamrovli va kompleks ilmiy izlanishlarda Alisher Navoiy hikoyalari alohida e’tiborga loyiq bo‘lib, ular nafaqat o‘zbek mumtoz adabiyotining, balki butun Sharq adabiy-madaniy merosining muhim tarkibiy qismi sifatida munosib o‘rin egallaydi. Navoiy hikoyalari

maxsus tadqiq etish orqali shoirning badiiy tafakkuri, hikoyachilik mahorati hamda umumsharq adabiy an'analari bilan aloqador jihatlari yanada teran va asosli yoritilishi mumkin.

Iqtiboslar/Сноски/References

1. Mallayev N. Alisher Navoiy va xalq ijodiyoti. – T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1974. – B. 15.
2. Белинский В. Г. Собр. Соч в трех томах, том II. – Москва, 1948. – С. 158.
3. Safarov O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. – T.: Musiqa, 2010. – B. 73.
4. Qorayev Sh. Navoiy o'qigan kitoblar. – T.: Lesson press, 2020. – B. 16.
5. Komilov N. Adabiyot va uch buyuk zot: Porso Shamsiyev, Jomiy va Navoiy. – T.: "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasi, 2004-yil 6-son.
6. www.ziyouz.com sayti.

ALISHER NAVOIY XALQARO JURNALI

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ АЛИШЕР НАВОИЙ
INTERNATIONAL JOURNAL ALISHER NAVOIY

“ALISHER NAVOIY” XALQARO JURNALINING AXBOROT XATI

“Alisher Navoiy” xalqaro jurnali O‘zbekiston Respublikasi OAK ro‘yxatiga kiritilgan. Shuningdek, Crossref.org tizimiga ham kiritiladi hamda har bir maqolaga DOI raqami beriladi.

MAQOLALARGA QO‘YILADIGAN TALABLAR:

- Maqola 10-15 sahifa hajmida taqdim etiladi;
- maqolalar o‘zbek, turk, tojik, rus, ingliz, fransuz tillarida qabul qilinadi;
- maqolaning tarkibiy tuzilishi IMRAD formatida rasmiylashtirilishi kerak;
- maqola Times News Roman shriftida, 12 kattalikda, 1 intervalda tayyorlanadi;
- havola(snokalar)lar katta qavsda muallif familiyasi – nashr sanasi – sahifasi [Mo‘minov 2020: 25] shaklida keltiriladi;
- maqola tomonlari chap: 2 sm, o‘ng: 2 sm, yuqori va quyi: 2 sm;
- maqolalar plagiatga qarshi tekshiriladi;
- jurnalning 1 ta sonida muallifning faqat 1 ta maqolasi chop etiladi.

MUROJAAT UCHUN MANZIL:
Tel.: +99891 527 68 22
Telegram ID: +998915276822
E-mail: alishernavoiy2020@mail.ru

ИНФОРМАЦИОННОЕ ПИСЬМО МЕЖДУНАРОДНОГО ЖУРНАЛА “АЛИШЕР НАВОИЙ”

Международный журнал “Алишер Навоий” включен в список ВАК Республики Узбекистан. Он также будет включен в систему Crossref.org, и каждой статье будет присвоен номер DOI.

ТРЕБОВАНИЯ К ОФОРМЛЕНИЮ СТАТЕЙ:

- Объем статьи: около 10-15 страниц;
- статьи принимаются на узбекском, турецком, таджикском, русском, английском и французском языках;
- структура статьи должна быть оформлена в формате IMRAD;
- шрифт текста – Times New Roman; размер – 12 пунктов; межстрочный интервал – 1;
- сноски приводятся в квадратных скобках с указанием фамилии автора – года издания – страницы [Мўминов 2020: 25];
- параметры страницы: слева 2 см, справа 2 см, сверху и снизу по 2 см;
- статьи проверяются на плагиат;
- в одном номере журнала публикуется только 1 статья автора.

НАШИ КОНТАКТЫ:
Тел.: +99891 527 68 22
Telegram ID: +998915276822
E-mail: alishernavoiy2020@mail.ru

“ALISHER NAVOIY” INTERNATIONAL JOURNAL INFORMATION LETTER

“Alisher Navoiy” International Journal is included in the list of HAC of the Republic of Uzbekistan. It will also be included in the Crossref.org system, and each article will be assigned a DOI number.

REQUIREMENTS FOR ARTICLES:

- The article should be presented in 10-15 pages;
- articles are accepted in Uzbek, Turkish, Tajik, Russian, English, French;
- the structure of the article should be in the IMRAD format.
- the article should be prepared in Times New Roman font, 12 sizes, 1 space;
- references are given in parentheses in the form of the author’s name – date of publication - page [Muminov 2020: 25];
- sides of the article left: 2 cm, right: 2 cm, top and bottom: 2 cm;
- articles will be checked against plagiarism.
- only 1 article by the author is published in 1 issue of the journal.

CONTACT ADDRESS:
Phone: +99891 527 68 22
Telegram ID: +998915276822
E-mail: alishernavoiy2020@mail.ru